

INTERNET OLAMI***Elbek Jabborov****Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig‘iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqeа bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo‘q, deb beparvo qarab bo‘lmasligi, Internetdan olinayotgan xabarlar yoshlarning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin haqida.

Kalit so‘zlar: zamonaviy axborot, internet, axborot texnologiyalari, Ijtimoiy fikr.

KIRISH

Globallashuv jarayoni savdo munosabatlari doirasidan chiqib, axborot tizimini ham qamrab oldi. Endilikda bu jarayon ma’naviyat, ruhiyat, qadriyat sohalariga ham jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. «Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig‘iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqeа bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo‘q, deb beparvo qarab bo‘lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas». Bizning vazifamiz – O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga, xalqning ma’naviyati va jamiyat ruhiyatiga globallashuv jarayonlarining real ta’siri, tazyiqi va tahdidini o‘rganish, hisobga olish hamda o‘z siyosatimizni shu yo‘nalishda tahrir qilishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Bugun yoshlارимиз nafaqat o‘quv dargohlarida, balki radio-televide niye, matbuot, Internet kabi vositalar orqali rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqda. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari rivoji barcha sohalarning jadal taraqqiyotiga xizmat qiladi, odamlarga qulaylik yaratadi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.[4]

Internet – axborot ma’lumotlariga asoslangan katta bir, bozor. «Gohida Internetdan olinayotgan xabarlar yoshlarning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, degan fikrlar ham eshitilib qoladi. Men bunday fikrga qo‘shilmayman. Nega deganda, sodda qilib aytadigan bo‘lsak, Internet – bu katta bir do‘kon. Do‘konga borganda, odam xohlagan molini sotib oladi. Mana, masalan, siz katta bozorga kirdingiz. Undan o‘zingiz istagan buyumni sotib olasiz. Internetni ham shunday bir bozor, ya’ni axborot bozori deb tushunish kerak»[2]

Internetni ta’qiqlash mumkinmi? «Internetni yopib qo‘yish, undan foydalanishni ta’qiqlash – mutlaqo axmoqona ish. Lekin biz bolalarimizni shunday tarbiyalashimiz kerakki, ular Internet bozoriga kirganda faqat o‘zi uchun zarur narsani olsin. O‘g‘il-qizlarimizga Internetdan, axborotdan foydalanish madaniyatini o‘rgatishimiz zarur»[3].

Sir emas, Internetda bizning milliy qadriyatlarimizga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlar, masalan, behayo tasvirlar ham bor. Taajjubki, hozirgi kunda dunyo bozorida yalang‘och ayolning tanasi ko‘rsatilmasa, bu reklama reklama hisobiga o‘tmaydi. Nafaqat Internet, balki televizorda ham shunday.

Internet insoniyatga axborot almashish sur’atini nihoyatda tezlashtirib yuborgan vosita sifatida qanchalik naf bergen bo’lsa, taassufki, undan keladigan ziyon ham kam emas. Lekin cheklov joriy etish orqali kurashish ham mutlaqo samarasiz yo’ldir.


MUHOKAMA. «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o’rganish markazi tomonidan 2018 yilda o’tkazilgan «O’zbekiston yoshlari: hayotiy qadriyatlar, axloq, ijtimoiy yo’nalishlar» mavzusidagi sotsiologik tadqiqot natijalari bo'yicha sotsiologik so'rovnomalarda kelib chiqib tadqiqotning ko'rsatishicha, mamlakatda yoshlarning kompyuter savodxonligi darajasi o'smoqda, chunonchi, 2015 yilda 45,7%, 2016 yilda 49,8%, 2017 yilda 52,5%, 2018 yilda 56,3% respondentlar kompyuterni erkin bilishlarini ko'rsatishdi. 2015 yilda 26,6%, 2016 yilda 30,0%, 2018 yilda 20,3% respondent ayrim dasturlardan foydalanuvchi darajasida kompyuterni egallagan jadvali quyida ko'rsatilgan.

«Sizning kompyuter savodxonligingiz qanday?», degan savolga yoshlar bergen javoblarning taqsimlanishi, %

	2018	2017	2016	2015
Kompyuterda erkin ishlay olaman	56,3	52,5	49,8	45,4
Kompyuterda ayrim dasturlarning foydalanuvchisi darajasida ishlay olaman	30,3	32,0	30,0	26,6
Kompyuterda ayrim matn terish darajasida ishlay olaman	6,2	7,5	10,4	16,4
Kompyuterda ishlay olmayman	7,2	8,0	9,8	11,6

Yosh o’zbekistonliklarning kompyuter savodxonligi darajasi ma'lumot darajasiga bog’liq holatda ham tabaqlashadi.

Ma'lumot darajasi kesimida yoshlarning o’z kompyuter savodxonligiga o’zlari bergen baho, %



NATIJA. Ko‘rinib turibdiki, oliy ma'lumotli respondentlar (76,0) o’rta (30,9%) va o’rta maxsus (23,3%) ma'lumotli kishilarga nisbatan kompyuterni erkin

bilishlarini ko‘proq ko‘rsatdilar. Ushbu ma’lumotlar umumta’lim maktablarida, o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida bolalar va o‘smyrlarni kompyuterda ishlash ko‘nikmalariga samarali o‘rgatish uchun shart-sharoitlarni takomillashtirish zarurligini yaqqol ko‘rsatib beradi.

O‘qishda – 40,7% (2017 yilda 29,5%, 2016 yilda 40,9%), uyda – 31,0% (2017 yilda 14,2%, 2016 yilda 24,9%), ishda – 17,0% (2016 yilda 9,3%, 2017 yilda 19%) kompyuterlardan foydalanuvchilar soni ko‘paydi. Respondentlar kompyuterlardan internet-kafeda foydalanishlarini, shuningdek, shaxsiy mobil kompyuterga va shaxsiy kompyuterga ega ekanliklarini ham ko‘rsatishdi.

Bu raqamlar yuritilgan axborot sohasini yanada rivojlantirish, takomillashtirish, mavjud kompyuterlardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha zarur tashkiliy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish lozimligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, jamiyatni axborotlashtirish zamонавија axborot vositalari va texnologiyalar yordamida ijtimoiy tuzilma va jarayonlarni takomillashtirish sifatida talqin qilinishi lozim. Axborotlashtirish ijtimoiy intellektuallashuv jarayonlari bilan uyg‘un holda borishi kerak. Bu esa shaxs va u yashayotgan axborot muhitining ijodiy salohiyatini oshirishga imkon yaratadi. Axborotlashgan jamiyat oldingi jamiyatlardan sifat jihatidan farq qiladi. Uni yerda moddiy omillar emas, balki ma’naviy omillar – bilim va axborot birinchi o‘rinda turadi. Jamiyat a’zolarining aksariyati axborot va bilim olish, ularga ishlov berish hamda ularni saqlash va yetkazish jarayonida band bo‘ladi. Axborotlashgan jamiyatda axborot tayyorlash moddiy ishlab chiqarishning rivojiga turtki beradi.

Har qanday jamiyatda axborot hamisha mamlakat taraqqiyotining ko‘zgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasini shakllantirishning asosiy vosita bo‘lib kelgan. Bu holat ayniqsa shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bugungi globallashuv zamonda har qachongidan ko‘ra keng tarmoq yozdi, binobarin, hayotimizning birorta sohasini ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

O‘zbekiston ommaviy axborot vositalari ham mustaqillik yillarida katta rivojlanish yo‘lini bosib o‘tganini barchamiz yaxshi bilamiz va bunday yutuqlar bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

“Hozirgi kunda respublikamizda 1500 dan ziyod ommaviy axborot vositasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Birgina O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibidagi telekanallarning bir sutka davomidagi umumiyligi efir vaqtiga 616 soatni tashkil etmoqda. Holbuki, mustaqillikdan oldin bu raqam bor – yo‘g‘i 48 soatga teng edi, xolos.

E’tiborga molik jihat shundaki, ommaviy axborot vositalarining tarkibi ham tubdan o‘zgarib bormoqda. Buni yurtimizdagи barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari ekani ham tasdiqlaydi...”[5].

Bu haqda so‘z yuritganda, eng tezkor axborot vositasi – Internet hayotimizga tobora chuqur kirib borayotganini alohida qayd etish lozim. Hozirgi vaqtida golbal tarmoqda Uz domenli veb – saytlar, axborot portallari soni 30 mingdan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda ham faoliyat ko‘rsatayotgani, ushbu yo‘nalishlarda yangi ijodiy avlod – Internet jurnalistlari shakllanib borayotgan e’tiborga sazovordir.

Albatta, bunday natijalarga erishishda ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish masalasi davlatimiz va jamiyatmizning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelayotgani hali qiluvchi rol o‘ynamoqda. Ana shunday e’tibor tufayli o‘tgan davrda jurnalistlarimiz uchun faoliyat maydonini kengaytirish, ularning huquq va manfaatlarini ta’minalash maqsadida ko‘p ishlar qilindi. Jumladan, matbuot va ommaviy axborot vositalarini liberallashtirish va rivojlantirish, so‘z erkinligini ta’minalashga qaratilgan, demokratik talab va standartlarga to‘la javob beradigan 10 dan ortiq qonun xujjati qabul qilinib, bu borada mustahkam huquqiy baza yaratildi.

O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Milliy matbuot markazi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo‘llab – quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi kabi tashkilotar muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. Keyingi paytda ularning qatoriga Xalqaro press-klub ham qo‘sildi”[1].

Kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalari vazifalarini bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlari zimmasiga o‘tkazish orqali demokratik islohotlarni chuqurlashtirishda OAV imkoniyatlaridan samarali foydalanish buguni kunda yurtimizda dolzab vazifaga aylandi.

Ayni chog‘da bugungi globallashuv asrida axborotga bo‘lgan talab tobora kuchayib borayotganini e’tiborga olish zarur. Shuning uchun ham biz jamiyatimizdagи yoshlarni har qachongidan ham axborotlari olishda hushyor va sergak tortgan holda sarasini – saraga, puchagini – puchakka ajrata olish ko‘nikmalarini rivojlantirishimiz, milliyligimizga xos ma’naviy va mafkuraviy immunitetni shallantirishimiz, axborot xavfiga qarshi tura oladigan qilib tarbiyalashimiz lozim. Shunday ekan, xolis va haqqoniy axborotni tarqatish, jamoatchilikning bu mahsulotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ham muhim hisoblanadi.

XULOSA. XXI asr ijtimoiy ongni boshqarish borasida burilish asri bo‘ldi. Millionlab kishilarni bir vaqtning o‘zida jadal targ‘ibot bilan qamrab olish imkonini beradigan yangi texnologik vositalar paydo bo‘ldi. Ilgari tasavvur etib bo‘lmaydigan ko‘lamda siyosiy tomoshalar qo‘yishga qodir rejissor-tashkilotlar bo‘y ko‘rsatdi.

Ba’zan beozordek ko‘ringan reklama ham madaniy o‘zakni qo‘porishning kuchli vositasiga aylanayotganini e’tiborga oladigan bo‘lsak, “g‘oyaga qarshi g‘oya bilan kurashish zarurligi” haqidagi fikrning ahamiyatini yanada chuqurroq anglaymiz. Shunday ekan, o‘zligimizdan mahrum qilishga intilishlarning payini qirqishimiz, ongimizni boshqarishga urinishlarga bo‘y bermasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ш.М.Мирзиёев. Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига 27.06.2017й // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.- 1-жилд –Т.:, Ўзбекистон, 2017. 498-499-бет
2. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч ҳачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. - 13-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2005. 299-300-бетлар.
3. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч ҳачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. - 13-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2005. –300-бет.
4. Lutfullayev A.A. “Influence of virtuality on human spiritual world” nomla maqola American Journal Of Social Sciences And Humanity Research jurnal. Amerika.2023,46-bet.
5. Nodirbek O’tkir o‘g‘, S., Shuxrat o‘g‘li, T.P., & Chori G‘ofur o‘g‘, B. (2022). QARSHI BOSH KANALIDAGIN № 6-NASOS STANSIYASIING EKSPLUATATSION HOLATI VA ENERGIYA SARFI. Jahon ilmiy tadqiqot jurnali , 9 (1), 192-196.
6. Nodirbek O'tkir o'g, S., & Orif o'g, TMR (2022). BOSIM QUVURINI GIDRAVLIK ZARBANI SO'NDIRISH HISOBI. Ta'lim yangiliklari: 21-asrda tadqiqotlar , 1 (4), 134-138.
7. Zhuraevich, B. S. (2021). USE OF MINERALIZED WATERS FOR IRRIGATION OF THE TERRITORY OF UZBEKISTAN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(10), 717-723.
8. <https://xs.uz/uz/post/internetspeed>
9. <https://zamin.uz>